

Sabrning ahamiyati



12:45 / 16.02.2019 6359

Ey, farzand!

Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Uch narsada sabr etgan kishi yuksak darajalarga yetadi:

- 1.** Nafsining istaklariga sabrli bo'lganning jannatda har nafasiga Alloh uch yuz daraja beradi.
- 2.** Kim ibodat iztiroblariga sabr etsa, Alloh taolo o'sha kishining sabri uchun olti yuz daraja ehson etadi.
- 3.** Falokat qarshisida sabr etganga Alloh yetti yuz daraja ehson aylaydi!»

Muso alayhissalom Alloh taologa shunday dedilar:

«Allohim! Bandangga bir falokat yoki achchiq bir xabar kelsa, o'sha quling: «Inna lillaha va inna ilayhi rojiun», deya sabr ko'rsatsa, buning uchun unga nima ehson etasan?»

Alloh marhamat etdi:

«Ey, Muso! Men o'sha qo'limning har nafasiga qiyinchiligi ketguncha uch yuz daraja beraman.

O'sha falokatning ustiga yana bir falokat kelsa, qulim yana sabr qilsa, yana shunday darajalarni ato etaman!»

Ey, farzand!

Falokat, balo va musibatlarga sabr etish kerak. Bu haqda Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shunday deganlar:

«Alloh taolo bir kishining molu joniga, farzandiga bir falokat bersa, o'sha kishi bundan shikoyatchi bo'lmay, Alloh taologa shukr etishda davom qilsa va ahvolidan birovga shikoyatda bo'lmasa, Men o'sha qulimni mahshargohda azoblashdan hayo qilaman!»

Kishi o'zi uchun nima xayrli ekanini bilolmaydigan holga tushishi, hayot va o'lim orasida qolib, birini tanlashi kerak bo'lganida shunday deyishi lozim:

«Allohim! Men uchun yashamoq xayrli bo'lsa, sog'lik va ofiyat ber. O'lmoq xayrli bo'lsa jonimni ol. Mening har qanday holimni eng yaxshi bilguvchi o'zingsan!»

Yashab, yurib turganda o'limni orzu qilish to'g'ri emas. Hamda Allohdan har doim xayr-yaxshilik so'rashi lozim.

O'limdan qochib qutilish mumkin emas. O'lmaslik uchun chiranish yoki o'limni yoqimsiz ko'rsatish foyda emas, zararlidir.

Janoza xizmatida bo'lib, dafn paytida qabrga Alloh rizosi uchun loaqal bir kurak tuproq tashlash kerak. Bir valiy zot shunday rivoyat qiladi:

«Bir kishi avvalroq o'lgan bir kishini tushida ko'rdi. Ahvolini so'radi. Marhum shunday dedi:

«Mezon (tarozu)da savobimni tortdilar, juda yengil keldi. Shunda bir kishi kelib, savob pallamga bir kosa qo'ydi, savob tarafi og'irlashdi. Shundan so'ng Alloh taolo gunohlarimni afv etdi.

Men o'sha kosa nimaligini u yerdagi farishtalardan so'radim. Farishtalar shunday javob berdilar:

«Sen bir kun bir qabrga bir kurak tuproq tashlading, o'sha xizmatini Alloh huzurida qabul qildi. Otgan bir kurak tuproq savobi tarozining savob pallasiga qo'yildi va savob tarafi og'ir kelishini ta'minladi».